

**AQLIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ ALLOMALARI  
QARASHLARIDAN FOYDALANISH**

**Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich**

*Fargʻona davlat universiteti matematika-informatika fakulteti yoshlar masalalari va  
maʼnaviy-marifiy ishlar boʻyicha dekan oʻrinbosari.*

**Tursunova Dilfuzaxon Numanovna**

*Fargʻona davlat universiteti matematika-informatika fakulteti tyutori.*

*1. Gmail: [oerkaboyev@gmail.com](mailto:oerkaboyev@gmail.com)*

Aqliy tarbiya umuminsoniy tarbiyaning tarkibiy qismi boʻlib, kishilik jamiyatida tarbiya sohasida yetakchi rol oʻynaydi. Aqliy tarbiyaning mazmuni yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish, yuksak onglilik hislatini tarbiyalash va mustahkamlash, fan asoslaridan xabardor qilish, abstrakt tafakkur va nutq qobiliyatlarini oʻstirishdan iboratdir.

Aqliy tarbiya jarayoni talaba – yoshlarga “Axborot va talim-tarbiya” soatlarida berib boriladi, ularda erkin fikrlash, tasavvur qilish, diqqat va kuzatuvchanlik, kabi hislatlar taraqqiy ettiriladi.

Aql kishining oʻz irodasi, qalbi va fikri asosida dunyoviy hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga oʻz faoliyatida maʼnaviy-insoniy nuqtai-nazardan amal qilishdir.

Aql insonlarning piri komili, murshidi, yagonasidir. Komil inson deganda, biz avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan oʻzgalarga ibrat boʻladigan bilimli, maʼrifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab boʻlmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib koʻradi, oʻz fikri, oʻyi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam boʻladi.

Bizga maʼlumki, inson hayoti uchun muhim boʻlgan ilm xikmatlarini oʻrganishda ota-bobolarimizning faoliyati va ularning yoshlarga koʻrsatgan gʻamxoʻrligi beqiyosdir.

Xalqimiz orasidagi quyidagi oʻgitlar insonlarni ilm-maʼrifatga daʼvat etuvchi buyuk kuchdir. Inson uchun aql, eshik ochuvchi, axloqiy yoʻl koʻrsatuvchidir. Yetuk axloq va odob insonning ziynati, donolarning fazilatidir. Aqlli kishi axloqli boʻlsagina, xalqiga, mamlakatiga, yoru doʻstlariga naf keltiradi.

Sharq mutafakkirlari oʻz asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida oʻrin bergan. Xususan, Abu Nasr Forbiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tugʻilganda mavjud boʻlgan boʻlsa, aqliy bilimi, maʼnaviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, maʼlumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit taʼsirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi».

Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqqolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqqolning belgisidir. Ayniqsa, hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi».

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir.

Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi»<sup>1</sup>.

Alisher Navoiy o'zining aql-zakovati, ibratli axloqi, odobi bilan mamlakatiga, xalqiga hech qachon so'nmaydigan buyuk meros qoldirdi. U o'zi hayot bo'lgan davrlardayoq, aqli va axloqi bilan xalqiga, mamlakatiga ko'p foyda keltirdi, do'sti Xusayn Boyqaro davlatni adolatli mezonlar asosida boshqarishga yordamlashishga intildi. Navoiyning dono maslahatlari tufayli u ko'p falokatlarni oldini oldi, halokatlardan qutilib qoldi.

Abdulla Avloniyning yozishiga, aql-idrokning tantana qilishiga ishonmoq lozim. Chunki, «Aql insonlarning piri komili, murishdi yagonasidir, ruh ishlovchi, aql boshqaruvchisidir. Inson aqli ila din va e'tiqodini mahkam qilur, shariat hukmlariga bo'ysunur».

Aql-zakovat, ehtiyoj ham ob'yektiv zaruriyatni ongli tushunish bilan bog'liq bo'lgan ma'naviyatdir, ya'ni anglagan maqsadlar tizimidir.

Binobarin, har bir davrning ehtiyojlari ham, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti ham ilmiy tafakkuri salohiyati darajasi bilan belgilanadi. Biror muammoni hal etish imkoniyatlarini inson o'z aql-zakovati, bilimi, kuchi va irodasi bilan aniqlaydi.

1. O.M. Эркабоев. Наука в системе высших школ Республики Узбекистан. Архивариус. с 24-27
2. E.O. Muhammadjonovich. Determination of the physical status of secondary school students through sociological research. Berlin Studies Transnational Journal of Science and 2022. 1-5
3. O.Erkaboyev, O. G‘aniyev. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARNING “OMMAVIY MADANIYAT” TAHDIDIGA QARSHI KURASHI. INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. 2022.12.25
4. O.Erkaboyev, I. Mamatqulov. Ma’naviy tahdid - yosh avlod kelajagiga tahdid. INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. 2022.12.25